
RESPUBLIKA ISHCHI GURUHI TOSHLOQ TUMANIDA

Mahallalarda aholi muammolarni o'rganish va hal etish, bandligini ta'minlash, oilalarni mustahkamlash, ma'naviyat va ma'rifat, yoshlar tarbiyasi kabi yo'nalishlarda olib borilayotgan ishlarni o'rganish bo'yicha Respublika ishchi guruhi bugun Toshloq tumanidagi mahallalarda o'rganishlar o'tkazmoqda.

Mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlar holatini o'rganish va tashkiliy chora-tadbirlarga uslubiy ko'maklashish bo'yicha ishchi guruhlarga hududlarni biriktirish reja-jadvali hamda o'rganilishi zarur bo'lgan masalalar yuzasidan savolnomalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, ishchi guruh tomonidan 10 ta yo'nalishda olib borilayotgan ishlar holati o'rganilib, tashkiliy-uslubiy ko'maklashish choralari ko'rilmoqda. "Qizil" toifadagi mahallalar o'rganilmoqda.

Xususan, ishchi guruh "Axshak" MFYda bo'lib, mahallada ijtimoiy-ma'naviy muhitni, aholi ayniqsa yoshlar bandligini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish kabi bir qator masalalar o'rganildi.

2024-01-22 16:48:32